

TASVIRIY SAN'ATGA OID ATAMALARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMADA BERISH USULLARI

Abbasova N.K.

Farg'ona Davlat Universiteti katta o'qituvchi Phd.

Xojiakbarova R.A.

Farg'ona Davlat Universiteti Lingvistika: ingliz tili
mutahasisligi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7890522>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda san'atshunoslik terminlari tushunchasi tahlil qilindi. San'atshunoslik terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish usullari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: termin, tasviriy san'at, tarjima, lingvistik tarjimashunoslik, tarjima ko'lam, tarjima safi, ekvivalent.

O'zbek va ingliz tilidagi tasviriy san'at atamaları bir qator izomorfik va allamorfik xususiyatlarga ega bo'lib, ularga tarjima jarayonlarida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Dastavval tarjima, uning tilshunoslikdagi o'rni hamda vazifasi borasida ishimizningmazkur faslida so'z yuritamiz.

Tarjima madaniyatlarga ko'prik vazifasini bajaruvchi sohadir. Tarjima bizga ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimizga imkon beradi va ular orqali biz turli millatlarning madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lamiz.

Tarjimaga lingvistik tarjimashunoslik nuqtai nazaridan yondashib, quyidagicha ta'rif berish mumkin. Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir.

Mazkur ta'rif tillararo amalga oshiriladigan jarayonga aloqador bulib, insoniyat faoliyatining ko'proq qiyomi mazkur amaliyot bilan bog'liqdir. Shu tufayli tarjima deganda, aksariyat kishilar ko'z oldiga, birinchi navbatda, bir tildagi matnni ikkinchi tilga o'girish faoliyati namoyon buladi.

Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlari bilan ochiq-oydin tasavvur etamiz.

Tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi.



Yuqoridagi ta’riflardan ko’rinib turibdiki, tarjima murakkab jarayon bo’lib, tarjimon yuksak mahorat va chuqur bilim salohiyatiga ega bo’lishi lozim. Tilni bilishning o’zi badiiy asar tarjimasi bilan shug’ullanish uchun yetarli emas. Katford tarjimini ko’lami (extent), darajasi (level) va safi (rank) ga ko’ra turlarga ajratadi. Ko’lamiga (extent) ko’ra: to’liq (full) va qisman (partial); darajasiga (level) ko’ra: umumiy (total) va cheklangan (restricted); ranks (rank-bound vs unbounded translation) tarjima turlariga ajratadi. To’liq tarjimada (full translation) butun mant tarjima jarayoniga jalb etiladi va asliyat tilidagi hamma qims tarjima tilidagi material bilan almashtiriladi. Qisman tarjimada (partial translation), asliyat tilidagi ba’zi qismlar tarjima qilinmasdan qoldiriladi, ular shunchaki tarjima tiliga o’tkaziladi va kiritiladi. Bu tarjima turidan asosan “tarjima qilinmaydigan birliklar” bo’lganida yoki asliyat tilidagi mahalliy bo’yoqdorlikni saqlab qolish uchun foydalaniladi. Yuqoridagi turlardan farqli o’laroq, umumiy tarjima (Total Translation) asliyat tilidagi matnning barcha til birliklari tarjia tilidagilari bilan almashtiriladi. Ammo cheklangan tarjima – asliyat tilidagi matn materialining faqatgina bitta birligi - fonetik, grafik, grammatik yoki leksik - tarjima tiliga ogirilishi bilan farqlnadi. Uchinchi tarjima turi grammatik (yoki fonetik) ierarxiyadagi darajalar bilan bog’liq. Katford tarjimaning bu turiniikki kichik guruhga ajratadi: rank-bound translation va unbounded translation. Rank-bound translation umumiy tarjimada yuzaga keladi, biroq u tarjima tilidagi ekvivalentlarni tanlashda gramatik birliklar ierarxiyasidagi bir daraja – ko’pincha so’z yoki morfema darajasi da chegaralangan bo’ladi. Bunga zid ravishda, tarjima tilidagi ekvivalentlar cheklanmagan tarjimada (unbounded translation) erkin pastdan yuqoriga siljishi mumkin. Xos so’zlarni tarjima qilishda quyidagi usullardan barakali foydalanishimiz mumkin. E.Ochilov bunday usullardan 3 ta, F.Bakiyev esa 5 tasi misolida har bir usulning yutuq va kamchiliklarini yoritib bergan. Bular: 1) transliteratsiya yoki transkripsiya qilish, 2) sarlavha osti izohlari va tushuntirish, 3) kalkalash, 4) analogiya (o’xshash so’zlar bilan tarjima qilish), 5) tasviriyy tarjimalar.

Ingliz tilidagi tasviriyy san’atga oid terminlarini tarjima qilishda ko’pincha transliteratsiya yoki transkripsiya qilish usulidan foydalaniladi. Chunki ushbu terminlarning muqobilini o’zbek tilida bitta so’z bilan ifodalab bo’lmaydi. Shuning uchun so’zlar fonetik jihatiga ya’ni tilda qanday talaffuz etilishi yoki ekvivalent harf bilan almashtirish orqali o’zbek tiliga o’tadi. Bularga misol qilib quyidagi jadvaldagi so’zlarni keltirishimiz mumkin:

1-Jadval.



Inglizcha	O'zbekcha
graphic art	grafik art
plastic arts	plastik art
street art	strit art
antique	antik
casting	Kasting
encaustic	Enkaustik
fresco	Fresco
gouache	Guash

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komissarov V.N. Teoriya perevoda (lingvistik aspekty) / V.N. Komissarov. - M.: Vysshaya shkola, 1990. – 253 s.
2. Superanskaya A.V. “Общая терминология”. – М.: LIBROKOM, 2012. – 248s.
3. Azure. – 2019. – № 273. – 118 s.
5. Collins Cobuild : URL: <http://collinsdictionary.com/> (ma'lumotlar 10.03.2020)
6. Turing. – 2019. – №7. –126 s.
7. Elle Décor AQSh. – 2019. – №7. –108 s.
8. Ramka. – 2019. – №130. –182 s.
9. Oksford lug'atlari : URL: <http://oxforddictionaries.com/>.

